

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOJIKISTON DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDASI
TOJIKISTON DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI
TDTU

TOJIKISTON DAVLAT VOKZAL ACADEMICHESKIY
TEKHNICHESKIY UNIVERSITET
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
ARHITEKTURA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1931
UZBEK POLYTECHNIC INSTITUTE



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliv ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamlı kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktabalaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в Узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрович	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditni uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimalilibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления Машарипова Шахло Адамбаевна	366
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	372
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия Tajibayeva Kizlulgul Ajiniyazovna	376
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea Umidjan R. Nazarkulov	383
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari Jalolova Madina Shopo'lat qizi	388
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) Xudoyerova Mehrangiz	393
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	400
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .. Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	408
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish..... Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ichihev Oybek Ulug'bek o'g'li	414
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati..... G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	419
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar..... Mirzaxmedova A. A.	427
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .. Mirzaxmedova A. A.	432
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar .. Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	437
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari..... Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	442
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari .. Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	447
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan .. Dauletbaeva Ulzada Bakhadirova	450
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi .. Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifikat G'ayratovna	454
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari .. Karimov Ulug'bek Usmonovich	459
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati..... Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi	465
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishslash metodlari va algoritmlari tahlili .. Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev	470
Mamlakatimizdagи tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili .. Baxriddinov Sharofiddin	475
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri Normurodov Alibek Anvar o'g'li	483



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий	489
Турсунов Бобир Ортикомирзаевич	
Kimyosanoat korxonalarida “tejamkor ishlab chiqarish” konsepsiyasini tadbiq etish samaradorligi tahlili	494
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Buxoro shahar hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	499
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	
Aksiyadorlik jamiyatlari qarz kapitalini boshqarish siyosatining muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri	503
Kurbanov Xayrilla	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI QARZ KAPITALINI BOSHQARISH SIYOSATINING MUVOZANATLASHGAN MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA TA'SIRI.

Kurbanov Xayrilla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida qarz kapitali (asosan kreditlar) bozori hamda uning korporativ sektor moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni va ta'siri o'rganilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida jami aktivlar (JA) va majburiyatlar (M) o'zgarish dinamikasi Arifmetik o'ttacha yillik o'sish (AAGR) va Geometrik (kompaund) yillik o'sish (CAGR) ko'rsatkichlari asosida tizimli ravishda tahlil qilingan. Natijada aksiyadorlik jamiyatlarining qarz kapitali siyosati ularning moliyaviy barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlovchi ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: qarz kapitali, aktivlar, joriy aktivlar, uzoq muddatli qarz kapitali, qisqa muddatli majburiyatlar, kreditorlik qarzlar, Arifmetik o'ttacha yillik o'sish (AAGR), Geometrik yoki kompaund yillik o'sish (CAGR).

Abstract: This scientific article explores the debt capital market (primarily loans) in Uzbekistan's economy and its impact on ensuring the financial sustainability of the corporate sector. The study systematically analyzes the dynamics of total assets (JA) and liabilities (M) of joint-stock companies using the indicators of Average Annual Growth Rate (AAGR) and Compound Annual Growth Rate (CAGR). As a result, scientifically grounded conclusions have been drawn regarding the effect of debt capital policy on the balanced financial stability of joint-stock companies.

Keywords: debt capital, assets, current assets, long-term debt capital, short-term liabilities, accounts payable, Average Annual Growth Rate (AAGR), Compound Annual Growth Rate (CAGR).

Аннотация: В данной научной статье исследуется рынок заемного капитала (в основном, кредитов) в экономике Узбекистана и его влияние на обеспечение финансовой устойчивости корпоративного сектора. В работе системно проанализирована динамика изменения совокупных активов (JA) и обязательств (M) акционерных обществ с использованием показателей среднегодового арифметического роста (AAGR) и геометрического (компаундного) роста (CAGR). В результате сформулированы научно обоснованные выводы о влиянии политики заемного капитала на сбалансированную финансовую устойчивость акционерных обществ.

Ключевые слова: заемный капитал, активы, текущие активы, долгосрочный заемный капитал, краткосрочные обязательства, кредиторская задолженность, среднегодовой арифметический рост (AAGR), геометрический или компаундный рост (CAGR).

KIRISH

Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan korporativ tuzilmalar moliyaviy barqarorlikning muvozanatlangan darajasini ta'minlashda asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlariga avans qilinadigan kapital tarkibining optimal nisbatini shakllantirish zarurati mavjud. Ayniqsa, kapital tarkibida qarz kapitalini maqbul manbalar hisobidan shakllantirish orqali moliyaviy barqarorlikning mo'tadil darajasiga erishish, shuningdek, qarzlarga xizmat ko'rsatish orqali moliyaviy faoliyat xarajatlarini minimallashtirish evaziga moliyaviy natijadorlikni oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qarz kapitali va uning kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga ta'siriga oid ilmiy-nazariy asoslar F. Modil-yani va M. Millerning kapitallar tarkibi nazariyasiga oid ilmiy qarashlarida keng tizimlashtirilgan. S. Mayers kapitallarning optimal tarkibi va ularning o'ttacha tortilgan qiymatini baholash bo'yicha ilmiy yondashuvini ilgari surgan. R. Breyli va S. Mayers esa korporativ moliyalashtirishning muqobil variantlari sharoitida optimal kapital tarkibini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan. D. Dyuran esa qarz kapitalining optimal qiymati va uning kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini ikki jihat asosida tahlil qilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu ilmiy maqola doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy bilishning abstraksiyalash usulidan foydalangan. Empirik usullar sifatida statistik kuzatish, taqqoslash, tizimli-dekompozitsion tahlil hamda sintez metodlari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, iqtisodiy agentlar takror ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligini ta'minlash uchun moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarni qondirish maqsadida xususiy kapital bilan birqalikda qarz kapitalini ham jaib qilish imkoniyatiga ega. Zamonaviy sharoitlarda esa qarz kapitalining samaradorligi biznesning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, pul bozorlaridagi foiz stavkalari hamda qarz mablag'larini jaib qilishda yuzaga keladigan transaksion xarajatlar hajmiga bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, qarz kapitalining qiymati uch asosiy komponentdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topadi: qarz kapitalini jaib qilishdagi transaksion xarajatlar¹, foiz stavkalari va qarz amortizatsiyasi. Ushbu omillar birqalikda qarz kapitalining qiymat ekvivalenti kombinatsiyasini belgilaydi.

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston korporativ sektorida kredit xizmatlari spektrining kengayishi kapital tarkibida qarz kapitalining yuqori o'sish tendensiyasini yuzaga keltirmoqda. Rasmiy manbalarning tasdiqlashicha², 70 ta aksiyadorlik jamiyatini qamrab olgan tanlanma kuzatuv natijalari levej darajasining barqaror o'suvchanligini ko'rsatmoqda. Bu holat kapital tarkibidagi qarz kapitali ulushining ortishi natijasida moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi, risklar darajasining oshishi va ayniqsa xorijiy valyutadagi bank qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar ta'sirida moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarning sezilarli ravishda ko'payishi bilan izohlanadi. Natijada bu omillar rentabellik ko'rsatkichlariga va xususiy kapital hisobiga shakllanadigan ichki moliyaviy salohiyat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm: Iqtisodiyot tarmoqlaridagi korporativ kredit qoldiglari dinamikasi,³

1 Izoh: zamonaviy sharoitlarda moliya fanida "Moliyaviy inklyuziya" (Financial inclusion) tushunchasi ishlatalib, ushbu tushuncha moliyaviy xizmatlarni keng aholi qatlaming jaib qilish imkoniyati bilan izolanayotgan bo'lsa-da, ushbu formatda moliya tizimini isloh qilishda asosan qarz mablag'larini jaib qilishdagi transaksion xarajatlarning minimallashgan darajasi moliyaviy inklyuziyaga asoslangan barqaror moliya tizimining sharti sifatida qabul qilinmoqda. Qarang: Financial inclusion- refers to processes by which individuals and businesses can access appropriate, affordable, and timely financial products and services—which include banking, loan, equity, and insurance products // World Bank (2013-11-07). Global Financial Development Report 2014: Financial Inclusion. The World Bank. doi:10.1596/978-0-8213-9985-9. hdl:10986/16238. ISBN 978-0-8213-9985-9.

2 Moliyaviy barqarorlik sharhi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik departamenti. // <https://cbu.uz/upload/medialibrary/e9b/3u4ohnclu7otzuv1o6aujh6s4yr6kqp/2023-yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>

3 Moliyaviy barqarorlik sharhi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik departamenti statistik ma'lumotlari asosidagi muallif hisob kitoblari// <https://cbu.uz/upload/medialibrary/e9b/3u4ohnclu7otzuv1o6aujh6s4yr6kqp/2023-yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>.




Moliyalashtirish siyosatida kuzatilayotgan ushbu tendensiyalarning rivojlanish jarayoni, ayniqsa, korporativ sektorda moliyaviy shoklar yuzaga kelgan davrlarda, moliya tizimidagi yo'qotishlar xatarlarini kuchaytiradi. Ichki moliyaviy zaxiralarning to'planish darajasining pasayishi hisobiga korxonalar moliyaviy salohiyatining zai-flashuvi va pirovard natijada investitsion faollikning susayishi ehtimoli ortadi.

Bundan tashqari, qarzlarga xizmat ko'rsatish darajasining o'sishi, iqtisodiy rentabellikning nisbatan pastligi sharoitida qarzlarni to'lash qobiliyatining pasayishi va natijada substandart kreditlar portfeli hajmining ortishi moliya sektorining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Rasmiy statistik ma'lumotlar manbalariga ko'ra, 2023-yilda jami korporativ kreditlar qoldig'inining nominal qiymati 323 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, umumi kredit hajmi 12 foizga o'sgan. Ushbu kreditlarning 66 foizi xorijiy valyutadagi kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu holat korporativ sektor doirasida xorijiy valyutadagi qarzlar ulushining ortishi orqali iqtisodiyotning dollarlashuviga bevosita ta'sir etmoqda.

O'z navbatida, almashuv kursining tebranish amplitudasi yuqori bo'lishi va eksport salohiyatining yetarli darajada ortmasligi sharoitida korporativ sektorda "devalvatsion-qarz tuzog'i"⁴ deb nomlanuvchi muammo yuzaga kelishi hamda texnik defolt xavfi ortishi mumkin.



2-rasm: O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 10 ta aksiyadorlik jamiyatlarida 2023-yilda aktivlar va majburiyatlar nominal qiymati to'g'risida ma'lumot(Log-log polinominal trend)

2-rasmdagi grafikda aksiyadorlik jamiyatlarining jami majburiyatları (X o'qi) va aktivlarining nominal qiymati (Y o'qi) o'rtaqidagi bog'liqlik log-log mashtabda ikkinchi darajali polinominal trend chizig'i shaklida ifodalanган.

Vertikal o'q vektori bo'yicha trend chizig'idan yuqorida joylashgan aksiyadorlik jamiyatları — G'allAltek (GALT), Qizilqumsement (QZSM) va Farg'onaazot (FRAZ) — majburiyatlarining nominal qiymati aktivlarga nisbatan o'rtachadan past ko'rsatkichni namoyon qilgan. Bu esa, ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida aktivlarga avans qilingan kapital tarkibida xususiy kapital ulushining yuqoriligini tasdiqlaydi.

Mazkur holat 2023-yilgi statsionar davrga tegishli ma'lumotlar asosida shakllangan bo'lib, ushbu tahlil natijalari aktivlar va kapitallar tarkibini boshqarish siyosatining bevosita samarasini hisoblanadi.

1-jadvalga murojaat qiladigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan 2016–2023-yillar davomida aksiyadorlik jamiyatlarining aktivlari va majburiyatlarida sezilarli darajadagi xaotik o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, "Navoiyazot"

4 "Devalvatsion-qarz tuzog'i" konsepsiysi ilk bor iqtisodchilar Irving Fisher (Fisher I. The Debt-Deflation Theory of Great Depressions // Econometrica, 1933. 1(4), 337–357.), Pol Krugman (Krugman, P. Balance Sheets, the Transfer Problem, and Financial Crises// International Tax and Public Finance. 1999. 6, 459–472.), Carmen Reynxard va Kennet Rogovlar (Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly Princeton University Press. 2009) tomonidan tizimlashtirilgan bo'lib, aosan makroiqtisodiy fenomen sifatida mamlakat milliy valyutasining qadrsizlanishi (devalvatsiya) natijasida tashqi qarz yukining ortishi va iqtisodiy o'sishning sekinlashishi bog'liq holat sifatida tavsiflanai. Ushbu makroiqtisodiy holat iqtisodiyotdagi uzoq muddatli qarz to'lovi va devalvatsion risklar ta'siridagi moliyaviy barqarorlik muammolari vujudga kelishini ifodalaydi.



AJda 2017–yilda aktivlar hajmi avvalgi yilga nisbatan 210,5 foizga, majburiyatlar esa 264,4 foizga oshgan. Bu holat yirik va strategik ahamiyatga ega investitsion loyihalarning amalga oshirilishi bilan bog'liq investitsiya siyosati natijasi sifatida izohlanadi.

Shuningdek, 2022–2023–yillarda aktivlarning nominal qiymatida pasayish kuzatilgan bo'lib, bunga ta'sir ko'rsatgan asosiy omil majburiyatlar hajmining pasayishidir (2022–yilda – 90,7 %; 2023–yilda – 98,1 %). (1-jadval).

1-jadval: Aksiyadorlik jamiyatlarida jami aktivlar(JA) va majburiyatlarning (M) yillik o'zgarish dinamikasi haqida ma'lumot⁵, o'tgan yilga nisbatan %da

		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
«Navoiyazot» AJ	JA	180,9	210,5	145,5	131,9	114,1	130,1	96,4	97,3
	M	131,4	264,4	150,9	139,5	113,6	123,6	90,7	98,1
“Qo'qonbiokimyo” AJ	JA	112,3	199,7	131,3	97,3	103,7	96,3	101,0	115,7
	M	76,0	678,7	156,9	81,3	101,6	84,8	92,1	135,8
“Qizilqumsement” AJ	JA	105,5	119,0	117,8	109,1	125,6	121,4	105,4	116,0
	M	87,0	144,4	55,6	51,3	198,4	273,0	59,8	90,7
«Farg'onaazot» AJ	JA	127,4	118,3	82,1	86,3	108,7	110,5	95,1	117,8
	M	130,5	72,3	51,2	81,7	71,3	72,4	135,0	138,8
“Jizzaxplastmassa” AJ	JA	117,5	80,8	175,6	154,1	127,0	87,0	144,2	53,1
	M	116,5	72,0	92,0	91,7	198,2	83,7	75,1	102,3
Olmaliq TKMK AJ	JA	145,1	165,0	175,7	119,3	118,0	128,6	151,9	119,5
	M	145,0	295,4	162,0	106,6	110,9	126,4	227,9	103,3
«O'zkabel» AJ	JA	108,7	138,3	111,1	121,6	119,7	126,8	116,1	104,7
	M	89,0	224,6	91,9	118,3	117,1	118,8	131,8	91,1
«G'alla-Alteg» AJ	JA	112,6	113,0	126,5	162,9	108,6	98,1	179,4	77,3
	M	82,1	101,5	525,1	358,8	59,5	163,4	115,7	20,8
“O'zmetkombinat” AJ	JA	113,6	186,9	149,8	128,0	115,5	180,3	124,5	123,2
	M	114,7	342,5	143,6	130,9	121,5	186,5	123,8	108,9

Ushbu aksiyadorlik jamiyatida aktivlar qiymatining o'zgarishi majburiyatlar o'zgarishiga nisbatan yuqori sezuvchanlik kasb etgan bo'lib, bu holat aktivlarga avans qilingan kapital tarkibida majburiyatlar ulushining yuqoriligidan dalolat beradi.

“Qo'qonbiokimyo” aksiyadorlik jamiyatida esa aktivlar dinamikasidagi o'zgarishlar bilan majburiyatlar o'zgarish tendensiyasi o'rtaida sinxronlik yoki izchil dinamik bog'liqlik kuzatilmagan. Xususan, aktivlarning eng yuqori yillik o'sishi 2017–yilda kuzatilgan bo'lib (199,7 %), shu yilda majburiyatlarning yillik o'sishi 678,7 foizni tashkil etgan.

“Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyatida esa aktivlar yillik o'sishining dinamikasi nisbatan izchil bo'lgan, biroq majburiyatlar o'sishi xaotik tavsifga ega. Jumladan, majburiyatlarning yuqori o'sish sur'ati 2021–2022–yillarda mos ravishda 198 % va 2027 %ni tashkil etgan.

“Farg'onaazot” va “G'allaAltek” aksiyadorlik jamiyatlarida esa aktivlar nominal qiymatining yillik o'zgarish dinamikasi xaotik bo'lib, ularning o'sish sur'ati past darajada qayd etilgan.

“Olmaliq TKMK” hamda “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatlarida esa aktivlar va majburiyatlar nominal qiymatlarining izchil yillik o'sish sur'ati kuzatilmoqda.

Umumiyl xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tahlil qilingan aksiyadorlik jamiyatlarida 2016–2018–yillardagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, asosan, majburiyatlarning o'sish tendensiyasiga bog'liq bo'lgan. O'rta investitsiya sig'imiga ega aksiyadorlik jamiyatlarida esa aktivlar o'sish sur'atlarining keskin tebranishi kuzatilgan. Bu esa rivojlanish uchun ichki moliyaviy salohiyatni to'laqonli safarbar etish imkoniyatlarining yetarli darajada ishga solinmaganligini, shuningdek, moliyaviy resurslarni kapital bozorlaridan jalb qilishdagi zaiflikni ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq tizimli muammolarni yuzaga keltirgan.

Yillik o'sish sur'atlarini “sifatli” deb baholash faqat o'sish darajasining yuqoriligi bilan emas, balki ushbu trendlarning statistik ahamiyati va barqarorligi bilan ham aniqlanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki,

5 www.openinfo.uz- rasmiy saytiga joylangan yillik moliyaviy hisobotlar asosidagi muallif hisob kitobları.



aktivlar nominal qiymatidagi tizimli trendlar aniqlanmagan, bu esa xaotik dinamik trendlar sharoitida sifat ko'rsatkichlarini baholashda zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Yuqoridagi jadval tahlillari asosida, 2016–2023–yillar oralig'iда Arifmetik o'rtacha yillik o'sish (AAGR) quyidagicha hisoblanadi — 8 ta yillik o'sish koeffitsiyentining arifmetik o'rtachasi asosida:

$$(1) \quad AAGR = \frac{1}{8} \sum_{t=2016}^{2023} (g_t - 1)$$

Boshlang'ich va yakuniy nuqtalar o'rtasidagi geometrik yoki kompaund yillik o'sishni (CAGR) quyidagicha hisoblashmiz mumkin:

$$(2) \quad CAGR = (\prod_{t=2016}^{2023} g_t)^{\frac{1}{8}} - 1$$

2-jadval: Aksiyadorlik jamiyatlarida jami aktivlar(JA) va majburiyatlar (M) o'zgarish dinamikasini Arifmetik o'rtacha yillik o'sish (AAGR) va Geometrik yoki kompaund yillik o'sishi (CAGR) haqida ma'lumot

Aksiyadorlik jamiyatlari nomlari	Jami aktivlar		Majburiyatlar		Sharhi
	AAGR_{JA}	CAGR_{JA}	AAGR_M	CAGR_M	
Navoiyazot	38,3%	33,6%	39,0%	31,9%	Barqaror yuqori o'sish, aktivlar va majburiyatlar o'zaro mutanosib.
Aktivlar o'sishi o'rtacha, majburiyatlarning yuqori o'sishi, qarz yukining ortishi.	AAGR > CAGR O'sish trayektoriyasi volatilligi yuqori; Barqaror aktivlar o'sishi.		AAGR > CAGR O'sish trayektoriyasi volatilligi yuqori; Aktivlar va majburiyatlar o'sishi garmonik		
Qo'qon biokimyo	19,7%	16,3%	75,9%	27,7%	Aktivlar o'sishi o'rtacha, majburiyatlarning yuqori o'sishi, qarz yukining ortishi.
Aktivlar barqaror o'sishi, majburiyatlar minimal; Past risklar (CAGR≈0)	AAGR ≈ CAGR Aktivlar barqaror o'sishi		AAGR > CAGR, CAGR≈0 Majburiyatlar minimal; Past risklar (CAGR≈0)		Aktivlar barqaror o'sishi, majburiyatlar minimal(CAGR≈0). Moliyaviy barqarorlik xavfi past.
Farg'onaazot	5,8%	4,6%	- 5,8 %	- 11,3 %	Aktivlardagi salbiy trend, sekin o'sish; Majburiyatlar so'ndirilgan, qarz yukini pasayishi.
Aktivlar zaif o'sish sur'ati	AAGR > CAGR O'sish trayektoriyasi volatilligi yuqori;		CAGR < 0 Uzoq muddatli pasayish tendensiyasi; Qarz yukining pasayishi		
Jizzax plastmassa	17,4%	10,2%	3,9%	- 1,3 %	O'sish volatl; AAGR – CAGR farqi katta. qarzlarni qisqartirish, qayta moliyalashtirish yoki kapital qayta tuzilishi natijasi
Aktivlar yuqori barqaror o'sishi	AAGR > CAGR O'sish trayektoriyasi volatilligi yuqori		AAGR-CAGR >>ε Majburiyatlar dinamikasida katta tebranish amplitudasi		
Olmaliq TKMK	40,4%	38,9%	59,7%	49,1%	Intensiv o'sish. Majburiyatlarni aktivlardan yuqori nisbiy o'sishi
Aktivlarga nisbatan majburiyatlar yuqori o'sish sur'ati	AAGR ≈ CAGR Aktivlar yuqori barqaror o'sishi		AAGR > CAGR Aktivlarga nisbatan majburiyatlar yuqori o'sish sur'ati		
O'zkabel	18,4%	18,0%	22,8%	17,5%	Barqaror trend, AAGR≈CAGR — volatillik past.
Past volatillik. Aktivlar barqaror o'sishi.	AAGR ≈ CAGR Past volatillik. Aktivlar barqaror o'sishi.		AAGR > CAGR O'sish trayektoriyasi volatilligi yuqori;		



G'alla- Altek	22,30%	18,40%	78,40%	17,70%	Aktivlar o'sishi, 2018–2020-yillardagi "qarz shoklari" CAGR ni pastga tushirgan.
O'zmet kombinat	40,20%	37,80%	59,00%	47,60%	Yuqori o'sish. Qarz yuki boshqarishni talab qiladi.

Ushbu ikki usul orqali dinamik o'zgarishlarga quyidagicha aniqlik kiritiladi: "qanchalik tez" (AAGR), "qanchalik barqaror" (AAGR – CAGR farqi) va "umumiy samaradorlik mezoni" (CAGR). Bu esa, har bir korxona uchun moliyaviy strategiyani ishlab chiqishda tavakkalchilik darajasi va resurslar balansini qayta ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan chegaraviy nuqtalarni aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, "Navoiyazot", "Olmaliq TKMK" va "O'zmet-kombinat" aksiyadorlik jamiyatlarida geometrik yoki kompaund yillik o'sish (CAGR) diapazoni 38–49 %ni tashkil etib, tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan Yuqori o'sish kuzatilgan.

"Qo'qonbiokimyo" va "Jizzaxplastmassa" aksiyadorlik jamiyatlarida esa jami aktivlar va majburiyatlar o'zgarishlarining dinamikasida volatillik darajasining Yuqoriligi kuzatilgan bo'lib, bu holat ushbu korxonalar uchun zaxira likvidliligi va qarz mablag'larini tarkibini diversifikatsiyalash zaruratini yuzaga keltiradi.

Jami aktivlar va majburiyatlarning dinamik o'sishidagi izchillik va moliyaviy barqarorlik "Qizilqumsement" va "O'zkabel" aksiyadorlik jamiyatlarida ($AAGR \approx CAGR \approx 15\text{--}18\%$), istiqbolda aktivlarga investitsiyalanadigan kapital tarkibida qarz mablag'larini jaib qilishda imkoniyatlar mavjuddir.

Nisbatan past bo'lgan CAGR < 15 % ga ega aksiyadorlik jamiyatlarida aktivlarning o'sishi zaif darajada bo'lib, faoliyat sust va qarz mablag'larini jaib qilishga nisbatan konservativ yondashuv kuzatiladi. Ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan aktivlar va passivlarni restrukturizatsiyalash, investitsiyalarni jaib qilish orqali texnik modernizatsiyalash hamda ishbilarmon faoliyatini yuksaltirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi iqtisodiyotning sanoat tarmog'i aksiyadorlik jamiyatlarini asosidagi tanlanma kuzatuv natijasida quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

Birinchidan, tahlil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini aktivlari va majburiyatlarini dinamikasida ma'lum yaxlit o'zgarishlar kuzatilmagan bo'lsa-da (CAGR diapazoni: aktivlar bo'yicha min. 11 % – max. 49 %, majburiyatlar bo'yicha min. 11 % – max. 59 %), nisbatan yirik aktivlar sig'imiga ega aksiyadorlik jamiyatlarida ushbu tendensiyada aniqlangan. Demak, Yuqori ishbilarmonlik faoliyati natijasidagi aktivlar o'sish dinamikasi ichki moliyaviy salohiyatning to'planish darajasi bilan bir qatorda, qarz mablag'larini jaib qilish siyosati hisobiga shakllangan. Ushbu holat "Olmaliq TKMK" va "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatlariga xos bo'lib, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish siyosatining pirovard natijasi "yuqori o'sish – Yuqori qarz" konsepsiyasiga asoslanadi.

Ikkinchidan, aktivlar sig'imi nisbatan o'rtacha bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida aktivlarning o'sish darajasida Yuqori xaotik tebranishlar ("Jizzaxplastmassa" AJ, "Qo'qonbiokimyo" AJ) kuzatilib, bu ishbilarmonlik faolidagi noaniqliklar bilan birga, kapital tarkibini optimallashtirish siyosatini tizimli boshqarishdagi muammolarni yuzaga keltirgan. Ushbu aksiyadorlik jamiyatları, avvalo, texnologik modernizatsiya siyosatini amalga oshirish, sotuv bozorlaridagi pozitsiyalarini mustahkamlash orqali aktivlar barqarorligini ta'minlashi, hamda zaruriy strategik va operativ moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarini aniq belgilab olishi lozim.

Uchinchidan, barqaror o'sish tendensiyasiga asoslangan aksiyadorlik jamiyatları ("Qizilqumsement", "G'alla-Altek", "O'zkabel" AJ) ishbilarmonlik faoliyati ko'rsatkichlarini oshirish, shu bilan birga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida katta salohiyat mavjud. Bu jamiyatlarda kapital tarkibini optimallashtirish siyosati "konservativ" tafsifga ega. Fikrimizcha, ushbu aksiyadorlik jamiyatlarida aktivlarning barqaror o'sish sur'atini ta'minlash evaziga, qarz kapitalini jaib qilish va moliyaviy leverej samarasi orqali xususiy kapital rentabelligini oshirish hamda kompaniya bozor kapitallashuvi darajasini ko'tarish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. World Bank (2013-11-07). Global Financial Development Report 2014: Financial Inclusion. The World Bank. doi:10.1596/978-0-8213-9985-9. hdl:10986/16238. ISBN 978-0-8213-9985-9.
2. Modigliani F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. American Economic Review, 48(3), 261–297.
3. Myers S. C. (1984). The capital structure puzzle // The Journal of Finance.- 39(3), 575–592.
4. Damodaran A.. Applied corporate finance (3rd ed.). Wiley. 2010.
5. Graham, B., & Dodd, D. L. (1934). Security Analysis. New York: McGraw-Hill.
6. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019). Principles of Corporate Finance (13th ed.). McGraw-Hill Education.
7. Durand, D. (1952). Costs of debt and equity funds for business: Trends and problems of measurement. In National Bureau of Economic Research Conference Report.
8. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly Princeton University Press. 2009
9. Fisher I. The Debt-Deflation Theory of Great Depressions // Econometrica, 1933. 1(4), 337–357.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100